

DOI: 10.5281/zenodo.15714059

Link: <https://zenodo.org/records/15714059>

TALABALARNI ILMIIY-TADQIQOT ISHLARGA YO‘NALTIRISH JARAYONLARINI BOSHQARISH MASALALARI

Bekmuradova Gulnoza Maxmudovna

Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi mustaqil izlanuvchisi,

Toshkent shahar, O‘zbekiston Respublikasi

e-mail: bekmuradovagulnoza@gmail.com

Annotatsiya: mazkur maqolada ilmiy tadqiqotning mohiyati, talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etishning pedagogik-psixologik va ilmiy-metodik asoslari, ilmiy izlanish kompetensiyalarini shakllantirishda boshqaruvning o‘rni va talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlariga yo‘naltirish amaliyotining hozirgi holati bayon qilingan. Unda ilmiy tadqiqotning nazariy bilimlarini shakllantirishdagi o‘rni, ilmiy-tadqiqot jarayonlarini boshqarishning mavjud muammolari tahlil qilingan. Tadqiqotda talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlariga yo‘naltirishda samarali boshqaruv mexanizmlari hamda o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarining natijalari, ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish prinsiplari, uni takomillashtirishda ustoz-shogird hamkorligining muhim jihatlari va ilmiy tadqiqotda ilmiy muassasaning ishtiroki kabi masalalar ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim tizimi, ilmiy tadqiqot, talaba, rahbar faoliyati, ta’limni boshqarish, tajriba sinov.

Fundamental, amaliy tadqiqotlar va tadqiqotchilik ishlanmalari o‘rtasida aniq chegara mavjud emas, ular ko‘pincha bir-biri bilan bog‘liqdir. Tadqiqotchilik ishlari turli xil gumanitar, aniq fanlar, loyiha-konstruktorlik sohalariga fanlarni bevosita bog‘laydi. Ya’ni fan sohasi bilan kesishadi va uning chegarasidan chetga chiqib, tajriba namunalari yaratish va sinovdan o‘tkazish, tayyor mahsulot ishlab chiqarish va undan foydalanish texnologiyasini ishlab chiqish va o‘zlashtirish bilan bog‘liq amaliy ishlarni ham o‘z ichiga oladi. O‘z navbatida, mazkur ishlar yakunlovchi bosqichlarda ishlab chiqarish sohasi bilan tutashadi. Bunda tajriba, ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish zaruriyati turli ishlanmalar jarayonida ham, ishlab chiqarish jarayonida ham yuzaga keladi.

Hozirgi davrda tajriba va amaliyot fanga tayanadi. Ayni shu sababli, bir tomondan, amaliy faoliyatning ilmiy asoslarini ishlab chiquvchi tadqiqotchilar, boshqa tomondan esa – tegishli ilmiy bilimlarga ega bo‘lgan va ulardan o‘z mehnatida foydalana oladigan yuqori malakali amaliy xodimlar talab etiladi.

Bu borada talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlariga yo‘naltirishdagi samaradorlikni baholash, faqat nazariy mulohazalar bilan cheklanib qolmasligi kerak. Bu jarayonni chuqur o‘rganish va mukammal boshqaruv mexanizmini ishlab chiqish uchun amaliy tajribalar o‘tkazish lozim. Shu maqsadda 2024–2025 o‘quv yilida bir nechta oliy ta’lim muassasalarida tajriba-sinov ishlari tashkil qilindi. Ushbu tadqiqotlar davomida talabalarni ilmiy izlanishlarga jalb qilishda qanday yondashuvlar muvaffaqiyatli natija bergani va qay biri yetarli samara bermagani tahlil qilindi.

Tajriba-sinov ishi uchun Toshkent davlat pedagogika universitetining uchta fakultetida 2-3 bosqichda tahsil olayotgan 60 nafar talaba tanlab olindi. Guruh ikki qismga bo‘lindi: birinchi eksperimental guruhga zamonaviy ilmiy-tadqiqot metodlari asosida rahbarlik qilindi, ikkinchi nazorat guruhi esa odatdagi o‘quv jarayoniga asoslangan tarzda olib borildi. Bu ikki guruhga 4 oy davomida turli ilmiy faoliyatlar

— ilmiy maqola yozish, kichik loyiha ishlab chiqish, anjumanlarda ishtirok etish kabi topshiriqlar yuklatildi.

Shu vaqt mobaynida birinchi guruh talabalariga mentorlik tizimi, faol ilmiy rahbar bilan aloqalar, mustaqil izlanish topshiriqlari va baholash mexanizmlari joriy qilindi. Bu yondashuv natijasida 30 talabaning 23 nafari o‘z ilmiy loyihasini muvaffaqiyatli yakunlab, fakultet anjumanlarida qatnashdi. Ularning 8 nafari respublika miqyosidagi konferensiyalarda ishtirok etdi va ikki nafari ilmiy jurnalda maqola chop ettirishga muvassar bo‘ldi⁵⁹. Ikkinchi, ya’ni nazorat guruhida esa faqat 7 nafar talaba ilmiy-tadqiqot ishlariga kirishdi, ammo ularning faolligi va izchil rivojlanishi sust bo‘ldi. Ular asosan nazariy ma’lumotlarga tayangan holda ishlagan bo‘lishiga qaramay, amaliy yechimlar topishda qiynaldi. Bu holat ilmiy-tadqiqotga yo‘naltirishda rahbarlik va motivatsiya omillarining naqadar muhimligini ko‘rsatadi⁶⁰.

Kuzatuvlarimiz asosida shuni ta’kidlashimiz mumkinki, agar talabalarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish, har haftalik monitoring tizimi, rag‘batlantirish mexanizmlari va mustaqil tanlov erkinligi berilsa, ular o‘zlarini chinakam izlanishga bag‘ishlaydi. Amaliyotda bu o‘z tasdig‘ini topdi. Tajriba jarayonida faol talabalar haftalik ilmiy jurnallar yuritib bordi, bu esa ularning muammolarni chuqur anglashiga, fikrlarini tahliliy bayon etishiga yordam berdi⁶¹.

Tajribaviy guruhda foydalanilgan boshqaruv mexanizmlari orasida "3 bosqichli ilmiy yondashuv" alohida samaradorlik berdi:

- 1) muammoni aniqlash,
- 2) yechim yo‘llarini izlab topish,
- 3) yakuniy tahlil va baholash.

Har bir bosqichga mos topshiriq berilganida talabalar o‘z ustida ko‘proq ishlashga majbur bo‘ldi. Bunday yondashuv ularda mas’uliyat hissini kuchaytirdi⁶². Shuningdek, bu jarayonda talabalar fikrini o‘rganish maqsadida anonim so‘rovnoma o‘tkazildi. Natijalarga ko‘ra, eksperimental guruhning 87% a’zosi ilmiy izlanishlarga bo‘lgan qiziqish ortganini bildirgan. Aksariyat talabalar birinchi marta ilmiy maqola yozish tajribasini qo‘lga kiritganini, bu ularning tafakkurini ochganini aytgan. Bunga qarama-qarshi tarzda, nazorat guruhining faqat 25% talabalari ilmiy-tadqiqot jarayonining zarurligini his qilgan⁶³.

Bu faktlar shuni ko‘rsatadiki, talabalarni ilmiy-tadqiqotga jalb qilishda faqat bilim berish yetarli emas, balki ularning izlanishga rag‘bati, ustoz ko‘magiga bo‘lgan ishonchi va o‘zini namoyon qilish imkoniyati ham zarur. Tajriba-sinov davomida aynan ushbu jihatlarga urg‘u berilgani natijasida aniq natijalar kuzatildi⁶⁴. Bizning nuqtai nazarimizga ko‘ra, pedagog-rahbar talabani tadqiqotga undaydigan yetakchi, yo‘l ko‘rsatuvchi va ba’zan esa sherik bo‘lishi kerak. Talabaning har bir yutug‘i rahbar tomonidan e’tirof etilishi, ayni paytda uning kamchiliklari ham muloyimlik bilan tahlil

⁵⁹ O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi 2024-yilgi hisobotlari.

⁶⁰ Mamajonov B. Ilmiy izlanish asoslari. – Toshkent: TDPU, 2021.

⁶¹ Begmatova N. Talabalarni ilmiy faoliyatga tayyorlash metodikasi. – Samarqand, 2022.

⁶² Rasulov O. Talabalar bilan ishlashda zamonaviy yondashuvlar. – Toshkent, 2023.

⁶³ “Ilmiy izlanishlar monitoringi” – TDPU so‘rovnomasi, 2025.

⁶⁴ Kattabekov F. Ilmiy rahbar va talaba hamkorligi. – Farg‘ona, 2023.

qilinishi zarur. Tajriba-sinovda rahbar va talaba o‘rtasidagi ishonchli aloqa samaradorlikni oshirdi⁶⁵.

Yana bir muhim jihat — guruhii ilmiy loyihalarning joriy qilinishi. Talabalar o‘zaro raqobat emas, balki hamkorlik asosida ishlagani uchun ularning ijodiy salohiyati kengaydi. Tajribada 6 ta guruh ilmiy loyiha himoyasida qatnashdi, ularning har biri innovatsion yondashuv bilan ajralib turdi. Bu holat yakkalikdagi ishlardan ko‘ra ko‘proq samara berishini ko‘rsatdi⁶⁶. Aynan amaliy tajriba orqali shakllangan xulosalardan biri shuki, ilmiy rahbar faqat nazorat qiluvchi emas, balki ilhom beruvchi bo‘lishi zarur. Bu yondashuv orqali o‘z ustida ishlovchi, o‘z fikrini tahliliy bayon qila oluvchi, kreativ fikrlovchi talaba shakllanadi. Tajriba jarayonida aynan shunday talabalar yuzaga chiqdi⁶⁷. Yakuniy bosqichda esa talabalar o‘z ishlarini taqdimot shaklida himoya qildi. Ushbu jarayon ular uchun nafaqat o‘rganish, balki o‘zini namoyon qilish, fikrini himoya qilish, ishonch bilan gapirish kabi ko‘nikmalarni shakllantirish vositasiga aylandi. Bunga sabab – jarayonning har bir bosqichi ilmiy asosga ega, amaliy faoliyat bilan boyitilgan va Bizning izlanishga yo‘naltirilgan bo‘lishidir⁶⁸.

Umuman, talabalarni ilmiy-tadqiqotga yo‘naltirishda faqat auditoriya mashg‘ulotlari yetarli emas. Ularni real hayotiy vazifalarga bog‘lab, mustaqil izlanishga undovchi mexanizmlar, ayniqsa tajriba-sinovlar orqali shakllantirilgan yondashuvlar eng samarali natija beradi. Bizning kuzatuvlarim, talabalarning fikrlari, statistik ko‘rsatkichlar ham buni tasdiqlaydi.

Shuningdek, tajriba-sinov ishlarining samaradorligini oshirishda o‘quvchilar ishtirokida interaktiv metodlarni keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ilmiy-tadqiqotga yo‘naltirilgan seminar mashg‘ulotlari va kichik guruhlarda ishlash shakllari o‘zini oqladi. Tajriba davomida biz 3 ta nazorat va 3 ta tajriba guruhini shakllantirdik. Tajriba guruhlarida ilmiy muammolarni tahlil qilish, maqola yozish, eksperiment loyihalash bo‘yicha qo‘shimcha mashg‘ulotlar olib borildi. Natijada, bu guruhlarda ishtirok etgan talabalar ilmiy ifoda, mantiqiy tafakkur va izlanish qobiliyatlari bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘ldi. Bu holatdan shuni xulosa qilish mumkinki, talabalarni amaliyotga asoslangan ilmiy jarayonlarga faol jalb etish ularning akademik yuksalishiga xizmat qiladi.

Kuzatuvlarimizga ko‘ra, talabalar ilmiy izlanishda faollashgan sari, ularda mustaqil qaror qabul qilish, fikrni asoslash va tanqidiy yondashuv kabi ko‘nikmalar shakllanadi. Bu esa ilmiy salohiyatning shakllanishida muhim omildir. Aynan tajriba-sinovlar jarayonida men quyidagicha holatlarga guvoh bo‘ldim: ba’zi talabalar avvaliga noaniqlik va ikkilanishga moyil bo‘lsalar-da, izchil va rag‘batlantiruvchi yondashuv natijasida o‘zlariga ishonch hosil qilib, ilmiy loyihalarga astoydil kirishdilar.

Tajriba sinovlarining bir yo‘nalishi sifatida ilmiy tanlovlarda ishtirok etish tajribasi muhim rol o‘ynadi. Masalan, fakultet ichida tashkil etilgan “Eng yaxshi ilmiy

⁶⁵ G‘ulomova M. O‘quv jarayonida motivatsiya masalalari. – Buxoro, 2022.

⁶⁶ Qosimov S. Innovatsion pedagogika. – Toshkent, 2024.

⁶⁷ Shirinov A. Ilmiy faoliyatga kirish. – Termiz, 2023.

⁶⁸ “Pedagogik tajriba metodikasi” – Respublika uslubiy qo‘llanmasi, 2024.

maqola” tanlovi ko‘pchilik talabalarni harakatga keltirdi. Bu tanlovga tayyorgarlik jarayonida o‘tkazilgan maxsus seminarlar, ustozlar bilan yakka tartibda ishlash seanslari orqali talabalar ilmiy maqola yozish texnologiyalarini chuqur o‘zlashtirdi⁶⁹.

Ayrim talabalar o‘z ilmiy mavzulari asosida amaliy tajribalarni o‘tkazdi. Ulardan biri, “Mahalliy agrotexnik vositalarning tuproq unumdorligiga ta’siri” mavzusida olib borilgan eksperiment edi. Bu eksperiment davomida talaba tuproq namunalari ustida sinovlar o‘tkazdi va hosildorlikka ta’sir etuvchi omillarni statistik tahlil qildi. Bu holat nafaqat ilmiy yondashuvni rivojlantirdi, balki real hayotda ham foydali bilim manbai bo‘lib xizmat qildi. Shu jarayonlardan shaxsan men quyidagi xulosaga keldim: agar ilmiy-tadqiqot ishlari faqat nazariy yondashuvda qolib ketsa, talabalarda chuqur bilim emas, balki yuzaki tasavvurlar shakllanadi. Aksincha, tajriba-sinov va mustaqil izlanishlar orqali o‘z bilimlarini amalda sinagan talaba mustahkam bilim asoslarini egallaydi. Bu esa yuksak ilmiy tafakkur shakllanishining asosi bo‘ladi.

Tadqiqot jarayonida kuzatilgan muhim jihatlardan biri – talabalar orasida jamoaviy ishlash ko‘nikmasining shakllanishidir. Guruhli loyiha ishlari, masalan, “Iqlim o‘zgarishining hududiy o‘ziga xosliklari” mavzusidagi jamoaviy izlanishlar, talabalarda hamkorlikda fikrlash, vazifalarni taqsimlash, natijalarni umumlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirdi⁷⁰. Biz uchun aynan shu jarayonlar bo‘lajak pedagog sifatida katta saboq bo‘ldi. Har bir talabaning ichki salohiyati bor, faqat unga imkoniyat, muhit va yondashuv kerak. Jamoaviy loyihalarda faol qatnashgan talabalar keyinchalik individual loyihalarda ham muvaffaqiyatli ishtirok etganini kuzatdim. Bu shuni ko‘rsatadiki, ilmiy-tadqiqotga yo‘naltirish bir martalik tadbir emas, balki bosqichma-bosqich, tizimli jarayondir.

Shuningdek, biz tajriba guruhlarida “mentorlik tizimi”ni sinab ko‘rdik. Ya’ni, ilg‘or talabalar kamroq faol bo‘lganlarga yordamchi sifatida biriktirildi. Bu orqali nafaqat bilim almashinuvi, balki ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash mexanizmi ham shakllandi. Bu yondashuv nafaqat o‘quv jarayonini yengillashtirdi, balki ilmiy faoliyatga jalb etish samaradorligini oshirdi⁷¹.

O‘zim ham mentorlik jarayonida qatnashganimda shuni his qildimki, talaba-talaba o‘rtasidagi muloqotda ko‘proq samimiyat, o‘zaro ishonch mavjud. Bu esa rasmiy auditoriya muhitidan ko‘ra samimiy muhitda tezroq natijalar berishini ta’minlaydi. Ayniqsa, ilmiy-tadqiqotga endigina kirib kelayotganlar uchun bunday tajribalar muhim poydevor vazifasini o‘taydi. O‘tkazilgan tajribalarning yana bir yo‘nalishi – ilmiy axborot bilan ishlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan edi. Talabalarga elektron kutubxonalaridan, ilmiy bazalardan foydalanishni o‘rgatish bo‘yicha alohida mashg‘ulotlar tashkil etildi. Bu yondashuv ularning axborotni izlash, tanlash va saralash ko‘nikmalarini ancha oshirdi⁷².

⁶⁹ Islomov M.M. Talabalarni ilmiy faoliyatga jalb etishning samarali usullari. – Toshkent: “Ilm ziyo”, 2021. – 84-b.

⁷⁰ Matkarimova G.T. Ilmiy tadqiqot metodikasi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020. – 112-b.

⁷¹ Tursunov N.N. Mentorlik tizimi: zamonaviy yondashuv va ta’limdagi o‘rni. // Pedagogik mahorat jurnali, 2022, №4. – B. 45–48.

⁷² Juraeva S.X. Ilmiy axborot bilan ishlash kompetensiyasi: nazariy va amaliy jihatlar. – Samarqand: SamDU, 2021. – 97-b.

Bu holatga guvoh bo‘lganimizda, avval internetda faqat yuzaki ma’lumotlarni izlardi, endilikda esa talabalar JSTOR, Springer, Skopus kabi jahon miqyosidagi platformalardan ilmiy material topa olish qobiliyatini namoyon etishdi. Bu esa ularning maqolalaridagi ilmiy asos va manba aniqligi sezilarli darajada o‘sganini ko‘rsatdi. Tajriba-sinovlar davomida shuni ham angladikki, talabalarni rag‘batlantirish omili kuchli bo‘lsa, ularning ishtiroki yuqori bo‘ladi. Buning uchun eng yaxshi maqolalar mualliflarini sertifikat bilan taqdirlash, fakultet saytida e‘lon qilish, grantlarga tavsiya etish kabi yondashuvlar qo‘llanildi. Bu esa sog‘lom raqobat muhitini yaratdi va ilg‘orlarni yanada faolroq bo‘lishga undadi⁷³.

Umuman bu borada N. Shermuxamedova ta’kidlaganidek, dastlabki tadqiqot tajribada shakllanar ekan, metod tadqiqotning boshlang‘ich nuqtasi, amaliyot bilan nazariyani bog‘lovchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Metod va nazariyaning uzviy aloqasi ilmiy qonunlarning metodologik rolida o‘z aksini topadi. Har qanday fanga oid qonun insonni voqeliqdagi narsa va hodisalarni shu fanga mansub sohaga mos fikrlashga undaydi. Masalan, energiyaning saqlanish qonuni bir vaqtning o‘zida metodologik tamoyil bo‘lib, y oliy nerv faoliyatining reflektorlik nazariyasi, hayvonlar va inson axloqini tadqiq qilishning metodlaridan biri hamdir⁷⁴.

Ilmiy tadqiqot jarayoni tarixan ishlab chiqilgan metodlar asosida amalga oshiriladi. Hech kim hech qachon haqiqatni yo‘qdan bor qila olgan emas. Albatta, olim izlanishlar, xatolar qurshovida harakat qiladi. Ba’zi hollarda bir narsani izlash jarayonida butunlay boshqa narsa yaratiladi. Demak, metod o‘z-o‘zidan tadqiqotning muvaffaqiyatli bo‘lishini ta’minlay olmaydi, chunki nafaqat yaxshi metod, balki uni qo‘llash mahorati ham muhimdir. Ilmiy bilish jarayonida turli metodlardan foydalaniladi. Umumiy darajasiga ko‘ra, ular keng yoki tor ko‘lamda qo‘llaniladi. Har qanday fan o‘z predmetini o‘rganishda y yoki bu ob’ektning mohiyatidan kelib chiquvchi turli xususiy metodlardan foydalanadi. Masalan, ijtimoiy jarayonlarni o‘rganish metodi olamning ijtimoiy shakli, uning qonuniyatlari, mohiyatining xususiyatlari bilan belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda, ilmiy jarayonlarda sog‘lom raqobat talabani motivatsiyasini kuchaytiradi. Bunday rag‘bat elementlari nafaqat natijaga, balki jarayonga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Kuzatuvlarga ko‘ra ilmga intilish kuchli bo‘lsa, amaliy tajriba ham shunchalik ortadi. Talabalarni ilmiy-tadqiqotga jalb qilishda faqat bilim berish yetarli emas, balki ularning izlanishga rag‘bati, ustoz ko‘magiga bo‘lgan ishonchi va o‘zini namoyon qilish imkoniyati ham zarur. Tajriba-sinov davomida aynan ushbu jihatlarga urg‘u berilgani natijasida aniq natijalar kuzatildi. Bizning nuqtai nazarimizga ko‘ra, pedagog-rahbar talabani tadqiqotga undaydigan yetakchi, yo‘l ko‘rsatuvchi va ba’zan esa sherik bo‘lishi kerak. Talabani har bir yutug‘i rahbar tomonidan e’tirof etilishi, ayni paytda uning kamchiliklari ham muloyimlik bilan tahlil qilinishi zarur. Tajriba-sinovda rahbar va talaba o‘rtasidagi ishonchli aloqa samaradorlik ko‘rsatkichlarini belgilashiga guvoh bo‘ldik.

⁷³ Ahmedov A.R. Raqobat muhitida o‘quvchilarning ilmiy salohiyatini oshirish mexanizmlari. // Yosh olimlar izlanishlari, 2022, №2(18). – B. 58–61.

⁷⁴ Shermuxamedova N. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. T. 2014.-B. 89.

Xulosa, Ilmiy faoliyatning asosiy maqsadi bu olamdagi narsa va hodisalarning rivojlanish qonunlarini nazariy aniqlash, ularni anglash, bilish, insonlarga tabiat va ijtimoiy jarayonlarni boshqarishda zaruriy bilimlarni egallash, Bizning ehtiyojlarga mos ravishda o'zgartirishga qaratilgan. Binobarin, ilmiy-ijodiy faoliyat odamlarning tabiat va ijtimoiy munosabatlar ustidan hukmronlik qilish, noma'lum narsalarni kashf etish, ishlab chiqaruvchi kuchlarni ko'paytirish, moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratishda, eski nazariya va amaliy tajribaga tayanishda namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, fan rivojidadagi ilmiy-ijodiy faoliyat, innovatsion va novatsion yondashuvlar katta rol o'ynaydi. Zero, bugungi kunda fan rivojiga, ilmiy mantiqiy operatsiyalarga g'oyalar, nazariyalar, qat'iy mulohazalar natijasi sifatida qarash lozim.

Tadqiqotlarimizga ko'ra talabalar ilmiy faoliyatni tashkil etish va boshqarishda pedagoik va psixologik jihatdan talabaning ilmiy faoliyatga bo'lgan munosabati ko'p jihatdan uning o'zini anglash darajasiga bog'liq ekanligi, ya'ni talabani o'zini izlanishga layoqatli deb his etishi muhim ahamiyat kasb etishi, pedagogik yondashuvda esa motivatsiyaning o'rni ahamiyatli ekanligi, o'ziga xos rag'batlantiruvchi muhit shakllanishi, fakultet yoki kafedra doirasida eng yaxshi ilmiy maqola yoki loyiha tanlovlari tashkil etilishi talabalar faolligini oshirishi muhimligiga e'tibor qaratildi. Bunda talabalarni ilmiy faoliyatga jalb etish jarayoni, shuningdek, bosqichma-bosqich tashkil qilinishi, mustaqil izlanishi, ustoz-shogird an'anasi asosida ilmiy rahbarning o'rni muhim ekanligi tasdiqlandi.

Izlanishlar shuni ko'rsatdiki, ilmiy faoliyatda boshqaruvning samarali yo'lga qo'yilishi ilmiy kompetensiyalarni shakllantirishda strategik rejalashtirishga tayanishini tasdiqladi. Bu, oliy ta'lim muassasalari ilmiy salohiyatni rivojlantirishda qisqa muddatli va uzoq muddatli maqsadlar asosida harakat qilishi lozim. Masalan, birinchi va ikkinchi bosqich talabalari uchun ilmiy loyihalarda ishtirok etish imkoniyatlari yaratilsa, uchinchi va to'rtinchi bosqichlar uchun mustaqil izlanish va dissertatsiya ishii tayyorlashga yo'naltirilgan boshqaruv mexanizmlari yo'lga qo'yilishi muhim ekanligi tasdiqlandi. Bunday bosqichma-bosqich ilmiy faoliyatga yondashuv ijobiy natijalarga olib kelishini tasdiqladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, ilmiy-tadqiqot faoliyatini boshqarish faqatgina me'yoriy va rasmiy vazifalar emas, balki yondashuvlar tizimini takomillashtirish, sharoitlarni yaratish, imkoniyatlarni ochish, yetakchilikni shakllantirish va talaba bilan bevosita muloqotni o'z ichiga olgan murakkab mexanizmdir. Bu mexanizmni kuchaytirish orqali oliy ta'lim tizimida sifat o'sishiga erishish mumkin ekanligini ko'rsatdi.

Talabalar ilmiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash va maqsadga muvofiq ravishda boshqarish uchun yetarlicha resurslar muhim rol o'ynashini tasdiqladi. Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy ishlarni boshqarishda moddiy-texnik resurslar, masalan, ilmiy kutubxonalar, laboratoriyalar va onlayn platformalar kabi vositalar yetarli darajada bo'lishi, shuningdek, ilmiy-innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan texnologik vositalar ham talabalar tomonidan samarali foydalanilishi muhim rolyo'ynaydi. Shu boisdan, ilmiy jarayonlarni boshqarishda talabalar uchun zarur vositalarni taqdim etish zarurdir. Agar talabalar zamonaviy ilmiy vositalardan

foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishsa, ilmiy ishlarning samaradorligi ancha oshishini ko‘rstadi.

Tajriba-sinovlar davomida shuni angladikki, talabalarni rag‘batlantirish omili kuchli bo‘lsa, ularning ishtiroki yuqori bo‘lishini ko‘rsatdi. Buning uchun maqolalar mualliflarini taqdirlash, fakultet saytida e‘lon qilish, grantlarga tavsiya etish kabi yondashuvlar qo‘llanilishi yaxshi samara berishiga guvoh bo‘ldik. Bu esa sog‘lom raqobat muhitini yaratdi va ilg‘orlarni yanada faolroq bo‘lishga undaydi.

Umuman, bugungi kunda talabalarining ilmiy innovatsion ishlanmalarini qo‘llab-quvvatlash, yosh olimlarning ilmiy faoliyati uchun munosib shart-sharoitlar yaratib berishni nazarda tutuvchi alohida ustuvor masalalarni amalga oshirish belgilanganligi bejiz emas. Ayniqsa “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi” ning 52-maqсадida innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun barcha yo‘nalishlarda keng imkoniyatlarni yaratish, tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish, 73-maqсадida esa dunyoning nufuzli xalqaro tashkilotlari, ilmiy-tadqiqot markazlari va universitetlari bilan hamkorlikda «Yangi O‘zbekiston — Uchinchi Renessans» shiori ostida xalqaro konferensiya, simpozium va anjumanlar tashkil etish belgilanganligi ushbu masalaga davlat miqyosida alohida e‘tibor qaratilayotganligini tasdiqlaydi.

Ushbu yo‘nalishda oliy ta‘lim tizimidagi fanlarda ilmiy tadqiqotlarni samarali tashkil qilish, uning nazariy- metodologik jihatlarini kengroq tahlil qilish maqsadida dastlabki ilmiy faoliyatni tashkil qilish uchun chuqur ilmiylik, tarixiylik, xolislik tamoyillariga amal qilinishi hech kimga sir emas. Ilmiy-tadqiqot ishlariga yo‘naltirish jarayoni zamonaviy oliy ta‘lim tizimining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki bugungi kunda talabalarining nafaqat bilim olishi, balki shu bilimlarni amaliyotda, innovatsion faoliyatda qo‘llay olish qobiliyati ham ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, ilmiy izlanishlarga jalb qilish borasidagi amaliy holatni chuqur o‘rganish, tahlil qilish va muammoli jihatlarini aniqlash zaruratga aylanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi 2024-yilgi hisobotlari.
2. Mamajonov B. Ilmiy izlanish asoslari. – Toshkent: TDPU, 2021.
3. Begmatova N. Talabalarni ilmiy faoliyatga tayyorlash metodikasi. – Samarqand, 2022.
4. Rasulov O. Talabalar bilan ishlashda zamonaviy yondashuvlar. – Toshkent, 2023.
5. “Ilmiy izlanishlar monitoringi” – TDPU so‘rovnomasi, 2025.
6. Kattabekov F. Ilmiy rahbar va talaba hamkorligi. – Farg‘ona, 2023.
7. G‘ulomova M. O‘quv jarayonida motivatsiya masalalari. – Buxoro, 2022.
8. Qosimov S. Innovatsion pedagogika. – Toshkent, 2024.
9. Shirinov A. Ilmiy faoliyatga kirish. – Termiz, 2023.
10. “Pedagogik tajriba metodikasi” – Respublika uslubiy qo‘llanmasi, 2024.
11. Islomov M.M. Talabalarni ilmiy faoliyatga jalb etishning samarali usullari. – Toshkent: “Ilm ziyo”, 2021. – 84-b.

12. Matkarimova G.T. Ilmiy tadqiqot metodikasi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020. – 112-b.
13. Tursunov N.N. Mentorlik tizimi: zamonaviy yondashuv va ta’limdagi o‘rni. // Pedagogik mahorat jurnali, 2022, №4. – B. 45–48.
14. Juraeva S.X. Ilmiy axborot bilan ishlash kompetensiyasi: nazariy va amaliy jihatlar. – Samarqand: SamDU, 2021. – 97-b.
15. Ahmedov A.R. Raqobat muhitida o‘quvchilarning ilmiy salohiyatini oshirish mexanizmlari. // Yosh olimlar izlanishlari, 2022, №2(18). – B. 58–61.